

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL MULK
TIZIMINI JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI
MOSLASHTIRISH MASALALARI**

Olimov Shahriyor Orif o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Kalit so'zlar: JST, TRIPS, intellektual mulk huquqi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar, milliy rejim, talabnama, Madrid kelishuvi, oshkor etilmagan ma'lumot, litsenziya, ixtiro, foydali model, tijorat siri, shaxsiy nomulkiy huquqlar, integral mikrosxemalar topologiyasi.

Annotatsiya: Hozirgi kunda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi xalqaro tashkilotlardagi o'rnini yanada yaxshilash hamda xalqaro tashkilotlarga qo'shilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, respublikamizning Jahon savdo tashkilotiga (keyingi o'rnlarda – JST) a'zo bo'lishi bo'yicha jadal harakatlar olib borilmoqda. JST xalqaro savdoda tashkilotga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan hukumatlararo ko'p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. Muayyan bir davlat JSTga a'zo bo'lishi uchun u tomonidan ma'lum bir talab va shartlar bajarilishi talab etiladi. Shunday shartlardan biri bu JST ta'sis hujjatlari majmuiga kiruvchi Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimga (keyingi o'rnlarda – TRIPS bitimi) qo'shilish hamda uning qoidalarini milliy qonunchilikda aks ettirish hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi xalqaro tashkilotlardagi o'rnini yanada yaxshilash hamda xalqaro tashkilotlarga qo'shilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, respublikamizning Jahon savdo tashkilotiga (keyingi o'rnlarda – JST) a'zo bo'lishi bo'yicha jadal harakatlar olib borilmoqda.

JST 1995-yilda a'zo davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan. JST 1947-yil tuzilgan xalqaro bitim – GATT (ing. General Agreement on Tariffs and Trade)ning davomchisi hisoblanadi.

JST xalqaro savdoda tashkilotga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan hukumatlararo ko'p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi.

Muayyan bir davlat JSTga a'zo bo'lishi uchun u tomonidan ma'lum bir talab va shartlar bajarilishi talab etiladi. Shunday shartlardan biri bu JST ta'sis hujjatlari majmuiga kiruvchi Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimga

(keyingi o‘rinlarda – TRIPS bitimi) qo‘silish hamda uning qoidalarini milliy qonunchilikda aks ettirish hisoblanadi.

TRIPS bitimi JST ta’sis hujjatlaridan biri bo‘lib, **1994-yil 15-aprelda** Marokashda o‘tkazilgan Urugvay muzokaralari yakuni bo‘yicha qabul qilinib, **1995-yil 1-yanvardan** kuchga kirgan hamda JSTga a’zo davlatlar tomonidan intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish bo‘yicha **minimal talablarni belgilovchi** bitim hisoblanadi.

Hozirgi kunga qadar ushbu bitimga JSTning **160 nafar** a’zo davlatlarining barchasi qo‘silgan.

TRIPS bitimi muqaddima, **73 ta** moddani o‘z ichiga oluvchi **13 ta** bo‘lim va 7 qismdan iborat bo‘lib, JSTga a’zo davlatlarda intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish, ularga bo‘lgan huquqlarni sud va boshqa vakolatli organlar orqali himoya qilish, intellektual mulkni instrument sifatida amalga oshiriladigan nohalol raqobatni oldini olish, intellektual mulkni davlatlar bojxona hududlarida himoya qilinishini ta’minalash hamda intellektual mulk sohasidagi qonunbuzarliklarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

I. Milliy rejim va eng ko‘p qulaylik rejimi yo‘nalishida

TRIPS bitimining 3 va 4-moddalarida a’zo davlatlar intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish bo‘yicha **milliy rejim** va **eng ko‘p qulaylik rejimiga** muvofiq bir-birlarining fuqarolariga **bir xil imtiyozlar** berishlari nazarda tutilgan.¹

Eng ko‘p qulaylik rejimi deganda muayyan bir davlat tomonidan boshqa bir davlatga, xususan uning jismoniy va yuridik shaxslariga berilgan huquq, imtiyoz va imkoniyatlarni boshqa bir uchinchi davlatga, uning jismoniy va yuridik shaxslariga ham berishni nazarda tutuvchi rejim tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1177-moddasiga asosan, agar O‘zbekiston Respublikasining qonunida chet el yuridik shaxslari uchun boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, chet el yuridik shaxslari O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan tadbirkorlik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiradilar.²

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, respublikaning intellektual mulk sohasiga doir qonunchilik hujjatlari bevosita **soha bo‘yicha O‘zbekiston a’zo bo‘lgan xalqaro shartnomalar talablari asosida** ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan boshqariladigan **26 ta** intellektual mulk sohasiga oid xalqaro shartnomalardan **16 tasiga** a’zo hisoblanadi.

O‘zbekistonning **intellektual mulk sohasiga oid milliy qonunlarida** chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar ushbu sohaga oid qonunlarda nazarda tutilgan

¹ Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo‘yicha bitimi.

² O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi.

huquqlardan O‘zbekiston Respublikasining **yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda** yoki **o‘zaro kelishuv prinsipi** asosida foydalanishlari belgilab qo‘yilgan.

Biroq, milliy qonunchilikka muvofiq rezident va norezidentlar uchun intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq yuridik ahamiyatga ega xattiharakatlarni amalga oshirish uchun to‘lanadigan **davlat bojlarining miqdorlari bir-biridan farq qiladi**.

Ammo ta’kidlash joizki, intellektual mulk obyektlarini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazishga doir munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar normalariga ko‘ra, tegishli shartnomaga a’zo davlat o‘z hududida intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishga doir **talabnomalarni ko‘rib chiqqanlik uchun individual boj** (boj miqdorini o‘zi belgilashi) talab qilishga haqli ekanligi nazarda tutilgan.

Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha Madrid kelishuvining 8-moddasida har bir davlat norezidentlar tomonidan **tovar belgilarini** ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat boji miqdorini o‘zi belgilashga haqli ekanligi ko‘rsatilgan.³

Huddi shunday norma **Sanoat namunalarini xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Gaaga bitimida** (O‘zbekiston ushbu xalqaro shartnomaga qo‘shilmagan) ham o‘z aksini topgan.

II. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarini himoya qilish yo‘nalishida

TRIPS bitimining 9-moddasida unga a’zo davlatlar Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasi talablariga amal qilishi lozimligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi TRIPS bitimining mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha **minimal talablariga mos keladi**.

O‘zbekiston **2004-yil 27-avgustda** Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern konvensiyasiga qo‘shilgan bo‘lib, ushbu xalqaro shartnomalar normalari asosida **2006-yil 20-iyulda** “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan.

III. Tovar belgilari va geografik ko‘rsatkichlarni huquqiy muhofaza va himoya qilish yo‘nalishida

O‘zbekiston Respublikasi “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonun (keyingi o‘rinlarda – Tovar belgisi to‘g‘risidagi qonun) normalari TRIPS bitimining minimal talablariga mos keladi. Shu bilan birga, 2022-yil 3-martda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan bo‘lib, **u TRIPS bitimining geografik ko‘rsatkichlarga doir normalariga to‘liq mos keladi**.

IV. Ixtiro, foydali model va sanoat namunalarini huquqiy muhofaza va himoya qilish yo‘nalishida

Respublikaning ixtiro, foydali model va sanoat namunasini huquqiy muhofaza va

³ Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha Madrid kelishuvi.

himoya qilishga doir milliy qonunchiligi TRIPS bitimi ushbu obyektlarga doir qoidalariqa **deyarli mos keladi**.

O‘zbekiston Respublikasi “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunining (keyingi o‘rinlarda – Sanoat mulki obyektlari to‘g‘risidagi qonun) 8-moddasiga binoan agar sanoat namunasi sifatida ko‘rsatilgan obyekt **yangi va original bo‘lsa**, u huquqiy muhofaza qilinishi belgilangan.⁴

Biroq, TRIPS bitimining 25-moddasida sanoat namunasining patentlik layoqatliligi uning **yangi yoki originalligiga** qarab belgilanadi.

Aynan mazkur masala bo‘yicha TRIPS bitimining qoidalari milliy qonunchilik talablaridan **biroz farq qiladi**.

Xususan, TRIPS bitimining 34-moddasiga ko‘ra, agar patentlangan usul bilan olingan mahsulot **yangi** yoxud **ushbu usul yordamida** bir xil mahsulot ishlab chiqarilganligi ehtimoli katta bo‘lib, patent egasi tomonidan amalga oshirilgan oqilona harakatlar natijasida ham aslida qaysi jarayon ishlatilganligini aniqlash imkonи bo‘lmasa, mahsulot patentlangan usul orqali olingan deb hisoblanadi.

Milliy qonunchilikdan farqli o‘laroq, TRIPS bitimiga ko‘ra, bunday nizo yuzaga kelganda, sud organlari **javobgardan** bir xil mahsulotni olish usuli patentlangan usuldan farq qilishini isbotlashni talab qilish vakolatiga ega.

V. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutuqlariga oid huquqlardan uning huquq egasining ruxsatisiz foydalanish yo‘nalishida

TRIPS bitimining 31-moddasida patentdan foydalanish istagida bo‘lgan shaxs tomonidan uning huquq egasidan **munosib tijorat shartlari** asosida ruxsat olishga harakat qilingan bo‘lsa va ma’lum vaqt ichida ushbu urinishlar muvaffaqiyatsiz tamomlangan bo‘lsa, patent egasining ruxsatisiz unga haq to‘lagan holda belgilangan hajm va muddatda foydalanish mumkinligi belgilangan.

O‘z navbatida, TRIPS bitimining 2-moddasida a’zo davlatlar ushbu bitimning II, III va IV qismlariga nisbatan Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij Konvensiyasining 1-12 va 19-moddalariga rioya qilishlari kerakligi nazarda tutilgan.

Ushbu Konvensiyaning 5-moddasida (a-band, 4-qism) sanoat mulki obyekti egasi uni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnomha topshirgandan keyin **to‘rt yil ichida** yoki tegishli patent olingandan e’tiboran **uch yil davomida** foydalanmasa hamda boshqa shaxslarga litsenziya shartnomasi asosida foydalanishga berishdan bosh tortsa, ushbu muhofaza etilayotgan sanoat mulki obyektidan foydalanishni xohlovchi va foydalanishga tayyor har qanday shaxs ushbu obyektdan majburiy litsenziya asosida foydalanishni talab qilishi mumkinligi belgilangan.

Shu bilan birga, TRIPS bitimining 31-moddasiga muvofiq patentdan **favqulodda vaziyatlarda, oxirgi zarurat holatlarida** davlat yoki shaxs tomonidan yoxud faqat davlat tomonidan **notijorat maqsadlarda** patent egasini zudlik bilan xabardor qilib,

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namuanalari to‘g‘risida”gi Qonuni.

munosib miqdorda haq to‘lagan holda foydalanish ruxsat etiladi.

Ammo, milliy qonunchilikda TRIPS bitimi talablaridan farqli o‘larоq, patentlar bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda qo‘llash, mutlaq huquqlarning buzilishi deb tan olinmaydi.

Bu esa, patent egasinining yuqorida nazarda tutilgan hollarda davlat yoki boshqa shaxs tomonidan uning patentidan foydalanish haqida xabardor qilinishiga hamda unga haq to‘lanilishiga oid huquqlarini ta’minlamaydi.

Shuningdek, TRIPS bitimining 31-moddasi ko‘ra, a’zo davlatlarning qonunchiligidagi patent egasining ruxsatsiz unga tegishli mulkiy huquqlardan ma’lum bir shaxs tomonidan foydalanilganda uning aniq hajmini va davomiyligini, haq to‘lash tartibini, majburiy litsenziyani talab etishdan oldin huquq egasiga mutanosib taklif qilish shartligini nazarda tutuvchi normalar belgilanishi ko‘zda tutilgan.

VI. Integral mikrosxemalar topologiyasini (topografiyasini) huquqiy muhofaza va himoya qilish yo‘nalishida

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi integral mikrosxemalar topologiyasi (topografiyasi) bo‘yicha TRIPS bitimining **minimal talablariga mos keladi**.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida integral mikrosxemalar topologiyalari (topografiyalari) ro‘yxatga olinmagan.

VII. Oshkor etilmagan ma’lumotlarni himoya qilish yo‘nalishida

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi TRIPS bitimining oshkor etilmagan ma’lumotlarni himoya qilish masalasini tartibga soluvchi 39-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga mos keladi. Xususan, oshkor etilmagan ma’lumotni noqonuniy foydalanishdan himoya qilish Fuqarolik kodeksi (11, 98, 1040, 1095- moddalar) va O‘zbekiston Respublikasi “Tijorat siri to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

VIII. Intellektual mulkka oid huquqlarni himoya qilish yo‘nalishida

a) Fuqarolik-huquqiy va ma’muriy tartib-taomillar hamda sud himoyasi vositalari

TRIPS bitimining asosiy talablaridan biri har bir a’zo davlatda intellektual mulkka oid huquqlarga rioya etilishini samarali ta’minlash hisoblanadi. Shu bois bitimda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha aniq qoidalar va mexanizmlar nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bitimning intellektual mulkni huquqiy himoya qilish bilan bog‘liq qoidalari O‘zbekiston qonunchiligi bilan solishtirilganida ayrim nomuvofiqliklar mavjudligi kuzatildi.

Xususan, bitimning 46-moddasida kontrafakt mahsulotlar hamda ularni ishlab chiqarilishida foydalanilgan materiallar va uskunalarini **olib qo‘yish** yoki, agar konstitutsiyaviy talablarga zid bo‘lmasa, **yo‘q qilish** choralarini belgilash nazarda tutilgan.

Shu bilan bir qatorda, ushbu moddada **tovar belgisidan** noqonuniy foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘rovida noqonuniy qo‘llanilgan tovar belgisini **oddiy olib tashlash yetarli emasligi**, ya’ni kontrafakt mahsulotlarni yo‘q qilish hamda bu turdagи tovarlarni ishlab chiqarilishida asosiy o‘rinda foydalanilgan huquqbazarlik ashyolarini olib qo‘yish lozimligi qayd etilgan.

Ammo, bitimga a’zo davlatlar tomonidan bunday vaziyatlar yuzasidan ham **istisnolarni**, misol uchun noprofessionallik natijasida yuzaga keladigan huquqbazarlik holatlarini belgilashi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuning 66-moddasiga ko‘ra, asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalari, shuningdek ularni tayyorlash va takrorlashda foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalar hamda sodir etilgan huquqbazarlikning boshqa vositalari qonunchilikka muvofiq sud tartibida musodara qilinishi belgilangan.⁵

b) Chegara choralarini

TRIPS bitimining 58-moddasiga binoan a’zo davlatning chegara masalalari bo‘yicha vakolatli organi tomonidan bojxona orqali olib o‘tilayotgan mahsulotni **o‘z tashabbusi bilan** to‘xtatish, huquqbazarlik alomatlari aniqlanganda, tegishli ta’sir choralarini qo‘llash talab etiladi.

Shuningdek, davlatda TRIPS bitimining talablaridan kelib chiqqan holda ish yurituvchi malakali mutaxassislarning yetishmasligi “ex officio” tartib-taomilini milliy qonunchilikka joriy etishdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunday kadrlarni shakllantirish vaqt, mablag‘ va boshqa resurslarni talab qiladi.

c) Jinoiy tartib-taomillar

9 TRIPS bitimining intellektual mulk huquqlarini ta’minalash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha oxirgi bo‘limi “Jinoiy tartib-taomillar”ga bag‘ishlangan.

Ushbu bitimning 61-moddasiga muvofiq a’zo davlatlar o‘zlarining qonunchiligidan, agar tovar belgisi yoki mualliflik huquqining buzilishi **qasddan tijorat maqsadlarida** sodir etilgan bo‘lsa, bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llash asoslarini aniq belgilab qo‘yish lozimligi belgilangan.

Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida faqat muallif yoki ixtirochining **shaxsiy nomulkiy huquqlari** buzilgan taqdirda jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llanilishi belgilangan bo‘lib,⁶ intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarini **qasddan tijorat maqsadlarida** buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.